

**INSON HUQUQLARI BO‘YICHA MILLIY STRATEGIYA VA XALQARO
ORGANLAR QARORLARI IJROSINI TA’MINLASHNING ZAMONAVIY
MEXANIZMLARI**

Nusratova Nodirabegim Mirobid qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

***Annotatsiya.** Maqolada Inson huquqlari bo‘yicha Milliy strategiyaning 2020–2026-yillardagi huquqiy rivojlanishi, 2026-yil fevralida kiritilgan o‘zgartirishlar hamda ishlab chiqilayotgan “Inson huquqlari – 2030” strategiyasi tanqidiy-huquqiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Shuningdek, xalqaro organlar qarorlari ijro etish bo‘yicha joriy etilgan idoralararo hamkorlik tartibini “ijro, hisobot va kuzatuv bo‘yicha milliy mexanizm” (NMIRF) konsepsiyasi asosida baholanadi va mazkur mexanizmdagi huquqiy bo‘shliqlar aniqlanib, ularni bartaraf etishga qaratilgan takliflar beriladi.*

***Kalit so‘zlar:** inson huquqlari, Milliy strategiya, BMT shartnomaviy qo‘mitalari, ustav organlari, qarorlar ijrosi, idoralararo ishchi guruh, monitoring.*

Аннотация. В статье с критико-правовых позиций анализируются развитие Национальной стратегии Республики Узбекистан в области прав человека в 2020–2026 годах, изменения, внесённые в феврале 2026 года, а также разрабатываемая Стратегия «Права человека – 2030». Кроме того, через призму концепции Национального механизма по осуществлению, представлению отчётности и последующим мерам (NMIRF) оценивается действующий порядок межведомственного взаимодействия по исполнению решений и рекомендаций международных органов по правам человека. Выявляются существующие правовые пробелы в данном механизме и предлагаются рекомендации, направленные на их устранение.

Ключевые слова: права человека, Национальная стратегия в области прав человека, договорные органы ООН, уставные органы ООН, исполнение решений, межведомственная рабочая группа, мониторинг.

Abstract. This article provides a critical legal analysis of the development of the National Human Rights Strategy during 2020–2026, the amendments introduced in February 2026, and the draft Human Rights Strategy – 2030. The article also evaluates the inter-agency cooperation mechanism established for the implementation of decisions and recommendations of international human rights bodies through the prism of the National Mechanism for Implementation, Reporting and Follow-up (NMIRF) concept. Furthermore, it identifies existing legal gaps within this mechanism and proposes recommendations aimed at addressing them.

Keywords: human rights, National Human Rights Strategy, UN treaty bodies, Charter-based bodies, implementation of decisions, inter-agency working group, monitoring.

Inson huquqlari sohasidagi davlat siyosatini strategik hujjatlar asosida yuritish bugungi kunda huquqiy davlatlarning umume'tirof etilgan amaliyotiga aylangan. Biroq strategik hujjatning qabul qilingani uning samaradorligini avtomatik tarzda kafolatlamaydi. Xalqaro huquqshunoslikda "ijro tafovuti" (implementation gap) deb yuritiladigan muammo, ya'ni davlat zimmasiga olgan xalqaro majburiyatlar bilan ularning amaliy ijrosi o'rtasidagi farq, ushbu sohaning markaziy nazariy va amaliy muammolaridan biri hisoblanadi. Aynan shu tafovutni bartaraf etish maqsadida ko'plab davlatlar maxsus milliy muvofiqlashtiruvchi mexanizmlarini joriy etmoqda. O'zbekiston ushbu global jarayonning faol ishtirokchisi sifatida

2020-yil 22-iyunda Inson huquqlari bo'yicha Milliy strategiyani qabul qildi va keyingi yillarda uni izchil takomillashtirib bormoqda. Ayniqsa, 2026-yil 17-fevralda qabul qilingan Prezident Farmoni bilan xalqaro organlar qarorlarini ijro etish bo'yicha idoralararo hamkorlikning yangi tartibi joriy etilgani mazkur jarayonning sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilganini ko'rsatadi. Shu bois ushbu o'zgartirishlarni xalqaro tajriba asosida tahlil qilish hamda ulardagi huquqiy bo'shliqlarni aniqlash ahamiyatlidir.

Inson huquqlari sohasidagi davlat siyosatining huquqiy poydevori bosqichma-bosqich shakllandi va uning eng muhim bosqichi 2023-yil 30-aprelda umumxalq referendumida qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiya bo'ldi. Asosiy qonun normalarining qariyb 65 foizi yangilanib, inson huquqlariga doir konstitutsiyaviy kafolatlar sezilarli kengaytirildi.¹ Xususan, Konstitutsiyada "inson - jamiyat - davlat" tamoyili davlat qurilishining asosiy g'oyasi sifatida belgilandi, har bir shaxsning o'z huquqlarini himoya qilish uchun nafaqat milliy, balki xalqaro institutlarga ham murojaat qilish huquqi konstitutsiyaviy kafolat sifatida mustahkamlandi. Mazkur norma esa, o'z navbatida, xalqaro organlar qarorlarini milliy darajada ijro etish mexanizmini shakllantirishni huquqiy zaruratga aylantirdi.

Konstitutsiyaviy islohotlar negizida amalga oshirilgan chora-tadbirlar muayyan natijalar berdi. 2020-2025-yillarda O'zbekiston bir qator xalqaro indekslarda o'z mavqeini yaxshiladi: Jahon bankining 2026-yilgi "Ayollar, biznes va qonun" indeksida 82,1 ball bilan 190 ta davlat orasida 48-o'rinni,² Barqaror

¹O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (2023-yil 30-aprel umumxalq referendumida qabul qilingan tahrir) // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.

²Women, Business and the Law 2026. World Bank Group, Washington, 2026.

rivojlanish yechimlari tarmogʻi hisobotida esa 62-oʻrinni egalladi.³ Ushbu yutuqlarni eʼtirof etgan holda, fikrimizcha, reyting koʻrsatkichlari sohaning real holatini toʻliq aks ettirmaydi: ular davlat siyosatining umumiy yoʻnalishini koʻrsatsa-da, aniq xalqaro qarorlarning ijro etilish darajasini oʻlchamaydi. Aynan shu sababli reyting yutuqlari bilan amaldagi ijro mexanizmlarining holati oʻrtasidagi tafovutga alohida eʼtibor qaratish lozim.

Xalqaro hamkorlik sohasida ham muayyan yutuqlarga erishildi. Strategiyani amalga oshirish doirasida Oʻzbekiston BMTning Inson huquqlari boʻyicha kengashi va shartnomaviy qoʻmitalariga ellikdan ortiq milliy maʼruza taqdim etdi,⁴ 2021–2023-yillarda Inson huquqlari boʻyicha kengash aʼzosi sifatida faoliyat yuritdi, 2024-yilda esa mamlakat vakili ilk bor BMTning Inson huquqlari qoʻmitasi aʼzosi etib saylandi. Mazkur natijalar Oʻzbekistonning xalqaro nufuzi ortib borayotganini koʻrsatsa-da, fikrimizcha, maʼruzalar taqdim etish va aʼzolikka saylanish, bu hamkorlikning birinchi bosqichi xolos. Asosiy huquqiy savol esa ushbu organlar tomonidan qabul qilingan qarorlar va tavsiyalarning milliy darajada qanchalik ijro etilayotganida qoladi. Ijro mexanizmi muammosini hal etish yoʻlidagi muhim qadam Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 17-fevraldagi PF–27-son Farmoni boʻldi. Mazkur Farmon bilan 2020-yilgi PF–6012-son Farmonga oʻzgartirishlar kiritilib, BMTning ustav organlari va shartnomaviy qoʻmitalarining xabarnomalari va mulohazalarini oʻz vaqtida koʻrib chiqish hamda ular yuzasidan Hukumatning rasmiy nuqtai nazarini tayyorlashda davlat organlarining masʼuliyatini oshirish maqsadida ularning oʻzaro hamkorlik tartibi

³Sustainable Development Report 2025. Sustainable Development Solutions Network (SDSN). Cambridge University Press, 2025.

⁴Inson huquqlari boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi Milliy markazi rasmiy maʼlumotlari. — Toshkent, 2026.
SJIF: 5.051

to'g'risidagi Nizom tasdiqlandi.⁵ Bizning nazarimizda, ushbu Nizomning asosiy ahamiyati shundaki, u ilgari turli idoralar o'rtasida tarqoq va nomuntazam kechgan jarayonni ilk bor yagona protsessual tartibga keltirdi. Nizom asosiy tushunchalarni aniq belgilab berdi. Unga ko'ra, xabarnoma - shaxs yoki shaxslar guruhi tomonidan o'z huquqlari buzilganligi to'g'risida ustav organlari va qo'mitalarga taqdim etilgan va ushbu organlardan O'zbekistonga yo'naltirilgan yozma murojaat, mulohaza esa - ushbu organlar tomonidan xabarnoma yuzasidan qabul qilingan yakuniy xulosa va tavsiyalardir. Diqqatga sazovor jihati shundaki, Nizom ustav organlari qatoriga nafaqat shartnomaviy qo'mitalarni, balki Inson huquqlari bo'yicha kengashning maxsus ma'ruzachilari, ishchi guruhlari va boshqa maxsus vakolat egalarini ham kiritgan. Fikrimizcha, bu yondashuv o'rinli, zero u davlatning xalqaro hamkorlik doirasini kengaytiradi va turli xalqaro mexanizmlardan kelgan murojaatlarga yagona protsessual yondashuvni ta'minlaydi. Shuningdek ushbu Nizom asosida, hukumatning rasmiy nuqtai nazarini tayyorlash va kelishish uchun vaqtinchalik idoralararo ishchi guruh institutining joriy etilishi belgilandi. Uning tarkibiga Milliy markaz va Adliya vazirligi vakillari, Tashqi ishlar vazirligi vakili, murojaat mazmuniga qarab tegishli sohaviy idoralar vakillari, shuningdek Ombudsman va Bola huquqlari bo'yicha vakil kiritildi.⁶ Ishchi guruh faoliyati shaffof tarzda olib boriladi, xabarnomaga taalluqli ma'lumot davlat siri yoki shaxsiy ma'lumotlarni o'z ichiga olmagan taqdirda, uning ishiga fuqarolik jamiyati institutlari va mustaqil ekspertlar jalb etilishi mumkin. Ushbu mexanizmning yana bir muhim elementi, mulohazalar, ya'ni qabul qilingan qarorlar ijrosini ta'minlash bo'yicha vakolatlarning aniq

⁵O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 17-fevraldagi PF-27-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 18.02.2026.

⁶PF-27-son Farmonga 3-ilova, "davlat organlarining o'zaro hamkorlik qilish tartibi to'g'risida Nizom", 2-bob, 10-band.

taqsimlanganidir. Nizomga ko‘ra, Markaz shartnomaviy qo‘mitalardan kelgan mulohazani tegishli davlat organlariga yuboradi, davlat organlari amalga oshirilgan yoki rejalashtirilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida ma‘lumot taqdim etadi, Markaz va Adliya vazirligi esa ular asosida umumlashtirilgan axborot loyihasini tayyorlaydi. Bunda mulohazalarda belgilangan zararni qoplash uchun to‘lov (kompensatsiya) sud tartibida belgilanishi nazarda tutilgan. Fikrimizcha, kompensatsiya masalasining sud tartibiga havola etilishi huquqiy jihatdan asosli bo‘lsa-da, amalda buning uchun alohida protsessual asos zarur, zero amaldagi protsessual qonunchilikda xalqaro organ qarori kompensatsiya undirish uchun bevosita asos sifatida belgilanmagan. Nizomda shoshilinch va vaqtinchalik choralar to‘g‘risidagi murojaatlarni ko‘rib chiqish tartibi alohida tartibga solingani ham e‘tiborga molik. Vaqtinchalik choralar (interim measures), shaxsga qaytarib bo‘lmaydigan zarar yetkazilishining oldini olish maqsadida qo‘mitalar tomonidan davlatga yuboriladigan murojaat bo‘lib, xalqaro amaliyotda muhim himoya vositasi hisoblanadi. Nizomga muvofiq, bunday murojaatlar bir kun ichida Markaz va Adliya vazirligiga yuboriladi. Fikrimizcha, mazkur tezkor tartib mexanizmning kuchli jihatlaridan biri bo‘lib, u shoshilinch holatlarda davlatning xalqaro majburiyatlariga muvofiq harakat qilishini ta‘minlaydi. Shu bilan bir qatorda, xabarnomalarni ko‘rib chiqishning aniq protsessual bosqichlari va muddatlarini belgilab berildi. Xabarnoma Tashqi ishlar vazirligiga kelib tushgan paytdan boshlab besh kun ichida Milliy markaz va Adliya vazirligiga yuboriladi; shartnomaviy qo‘mitalardan kelgan xabarnoma yuzasidan Hukumatning rasmiy nuqtai nazarini bildirish muddati olti oy, ustav organlaridan kelgan xabarnoma uchun esa oltmish kun etib belgilandi. Mazkur muddatlar va bosqichlar Nizomga ilova qilingan uchta sxema orqali batafsil tartibga solindi. Bunday aniq muddatlar

tizimi, fikrimizcha, mexanizmga huquqiy aniqlik baxsh etadigan va davlat organlarining javobgarligini kuchaytiradigan ijobiy yechimdir, zero ilgari aynan muddatlarning belgilanmagani ijro jarayonining cho‘zilishiga sabab bo‘lardi.

“Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6012-son Farmoni bilan joriy etilgan mexanizmni xalqaro huquqshunoslikda keng o‘rganilgan “ijro, hisobot va kuzatuv bo‘yicha milliy mexanizm” (National Mechanism for Implementation, Reporting and Follow-up, NMIRF) konsepsiyasi asosida baholash uning tabiatini to‘g‘ri tushunish imkonini beradi. BMT Inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissari boshqarmasi (OHCHR) ta‘rifiga ko‘ra, bunday mexanizmlar, BMT shartnomaviy qo‘mitalari, Universal davriy hisobot (UPR) va maxsus protseduralarga hisobot tayyorlash hamda ushbu mexanizmlardan kelgan tavsiyalar ijrosini milliy darajada muvofiqlashtiruvchi davlat tuzilmalaridir.⁷ Mazkur konsepsiya 2012-yilda Oliy komissarning shartnomaviy organlar tizimini mustahkamlash bo‘yicha hisobotida ilgari surilib, BMT Bosh Assambleyasining 2014-yilgi 68/268-sonli rezolyutsiyasida rasman e‘tirof etilgan.⁸ Xorijiy tadqiqotchilar S. Lorion va R. Murray besh davlat (Daniya, Mavrikiy, Moldova, Portugaliya va Koreya Respublikasi) tajribasini o‘rgangan tadqiqotlarida bunday mexanizmlar tavsiyalar ijrosini institutsionallashtirishning samarali vositasi ekanligini, biroq ularning muvaffaqiyati to‘rt asosiy shartga — doimiylik, yuqori siyosiy qo‘llab-quvvatlov, barcha manfaatdor tomonlarni qamrab olish hamda doimiy va malakali kadrlar

⁷National Mechanisms for Implementation, Reporting and Follow-up (NMIRFs). OHCHR official page. URL: <https://www.ohchr.org/en/treaty-bodies/national-mechanisms-implementation-reporting-and-follow>.

⁸UN General Assembly Resolution 68/268 “Strengthening and enhancing the effective functioning of the human rights treaty body system”, 9 April 2014, para. 20.

mavjudligiga bog‘liqligini asoslab beradi⁹. Umumjahon huquqlari guruhi ekspertlari ham aynan shu mezonlarni mexanizm samaradorligining asosiy ko‘rsatkichlari sifatida belgilaydi.¹⁰ Mazkur mezonlarni O‘zbekiston modeliga tatbiq etib, uni xolisona baholash mumkin.

Xalqaro tajribada bunday milliy mexanizmlar tashkiliy jihatdan uch asosiy turga ajratiladi: vazirlik tarkibidagi mexanizm, idoralararo doimiy mexanizm hamda alohida mustaqil institut sifatidagi mexanizm.¹¹ OHCHR tadqiqotlariga ko‘ra, mexanizm qaysi shaklda tashkil etilishidan qat’i nazar, uning samaradorligi ko‘proq faoliyatning doimiyligi va muvofiqlashtiruv vakolatining aniqligiga bog‘liq bo‘ladi. O‘zbekiston tanlagan model, doimiy muvofiqlashtiruvchi institut (Milliy markaz) huzurida ishchi guruh tuzish, nazariy jihatdan ushbu turlarning ustun tomonlarini birlashtiradi. Biroq, quyida ko‘rsatilganidek, ishchi guruhning vaqtinchalik maqomi mazkur modelning potensial afzalligini cheklab qo‘yadi.

Birinchi va ikkinchi mezonlar bo‘yicha O‘zbekiston modeli ijobiy baholanadi. Mexanizmning prezident farmoni darajasida mustahkamlangani va uning ijrosi nazorati Bosh vazir zimmasiga yuklatilgani yuqori siyosiy qo‘llab-quvvatlovdan dalolat beradi; jarayonga barcha asosiy davlat organlari, parlament vakillari va fuqarolik jamiyati institutlarining jalb etilishi esa qamrovning kengligini ta’minlaydi. Shu jihatdan O‘zbekiston tajribasi Moldova va Koreya Respublikasi kabi mexanizm mustaqil institutlar bilan yaqin hamkorlikda faoliyat yuritadigan

⁹Lorion S., Murray R. Interactions between National Human Rights Institutions and National Mechanisms for Implementation, Reporting and Follow-up. University of Bristol Law School, 2023.

¹⁰The emergence and coming of age of National Mechanisms for Implementation, Reporting and Follow-up. Universal Rights Group (URG), Geneva.

¹¹National Mechanisms for Reporting and Follow-up: A Study of State Engagement with International Human Rights Mechanisms. OHCHR, Geneva, 2016.

davlatlar amaliyotiga yaqinlashadi.¹² Biroq qolgan ikki mezon — doimiylik va kadrlar barqarorligi bo'yicha jiddiy huquqiy bo'shliq mavjud. Fikrimizcha, mazkur bo'shliq Nizomning eng zaif jihati hisoblanadi: ishchi guruh vaqtinchalik organ sifatida belgilangan bo'lib, u har bir xabarnoma yuzasidan qaytadan tuziladi. Bu esa NMIRF konsepsiyasining “mexanizm doimiy xarakterga ega bo'lishi kerak” degan asosiy mezoniga zid keladi. Har bir qaror bo'yicha ishchi guruhni qaytadan shakllantirish idoralararo aloqalarni har safar yangidan o'rnatish zaruratini keltirib chiqaradi, bu esa institutsional xotira to'planishiga to'sqinlik qiladi va jarayonni cho'zadi. Shu sababli, mazkur vaqtinchalik ishchi guruh o'rniga Milliy markaz huzurida xalqaro qarorlar ijrosi masalalarini muntazam ko'rib chiquvchi doimiy idoralararo ishchi guruh tashkil etilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Ikkinchi huquqiy bo'shliq monitoring va hisobot tizimida ko'zga tashlanadi. Nizomda Milliy markaz tomonidan jarayonni monitoring qilish nazarda tutilgan bo'lsa-da, har bir konkret xalqaro qaror (mulohaza) bo'yicha alohida ochiq hisobot tartibi belgilanmagan. Fikrimizcha, bu jiddiy kamchilik, chunki aynan konkret qarorlar bo'yicha shaffof hisobot tizimi davlatning xalqaro majburiyatlari ijrosini jamoatchilik nazoratiga olish imkonini beradi. Bundan tashqari, mexanizmida xalqaro qarorlar ijrosi yuzasidan mustaqil parlament nazoratining maxsus shakli, masalan, alohida yillik parlament tinglovi nazarda tutilmagan. Shu bois biz xalqaro inson huquqlari organlari qarorlari ijrosi bo'yicha yillik maxsus hisobot tartibini joriy etishni hamda uni Oliy Majlisda muhokama qilish amaliyotini o'rnatishni taklif etamiz.

¹²Lorion S. A Model for National Human Rights Systems? New Governmental Human Rights Focal Points and Coordination Mechanisms // Nordic Journal of Human Rights, 2020. Vol. 38, Issue 1.
SJIF: 5.051

Mexanizmni takomillashtirish istiqbollari ko‘p jihatdan ishlab chiqilayotgan yangi “Inson huquqlari – 2030” strategiyasi bilan bog‘liq. Mazkur strategiya 2026–2030-yillarga mo‘ljallangan bo‘lib, uning asosiy maqsadi inson huquqlarini ta‘minlashning samarali, ochiq va hisobdor milliy tizimini shakllantirishdan iborat. Strategiya to‘rtta ustuvor yo‘nalishni, milliy qonunchilikni takomillashtirish, ehtiyojmand toifalar huquqlarini himoya qilish, inson huquqlari madaniyatini yuksaltirish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlashni qamrab oladi. Biz uchun eng muhim jihat shundaki, strategiyaning birinchi ustuvor yo‘nalishi doirasida aynan yuqorida tahlil qilingan ijro muammosini hal etish ko‘zda tutilgan. Strategiyaning chora-tadbirlar dasturiga ko‘ra, fuqarolarning xalqaro organlarga murojaatlari yuzasidan qabul qilingan qarorlarni ijro etish mexanizmini qonunchilikda belgilash maqsadida tegishli qonun loyihasi 2028-yil aprelga qadar Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga kiritilishi rejalashtirilgan.¹³ Fikrimizcha, bu to‘g‘ri yo‘nalishdagi qadam, biroq qonun loyihasini ishlab chiqishda yuqorida qayd etilgan ikki bo‘shliq, doimiy ishchi guruh va konkret qarorlar bo‘yicha hisobot tartibi ham hisobga olinishi zarur, aks holda yangi qonun deklarativ (tavsiyaviy) xarakterda qolib ketishi mumkin. Strategiyaning yana bir muhim yo‘nalishi, xalqaro hamkorlik doirasini kengaytirishdir. Hozirgi kunda O‘zbekiston yetti asosiy shartnomani ratifikatsiya qilgan bo‘lsa-da, individual murojaat nuqtai nazaridan amalda faqat Inson huquqlari qo‘mitasiga murojaat ochiq. Yangi strategiya doirasida individual murojaat qilish mumkin bo‘lgan yana to‘rtta qo‘mitaning tegishli hujjatiga (fakultativ protokol yoki maxsus deklaratsiyaga) qo‘shilish ko‘zda tutilmoqda; umumiy holda 2026–2029-yillar davomida har yili kamida bittadan, jami beshta yangi xalqaro shartnomani ratifikatsiya qilish maqsad

¹³“Inson huquqlari – 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi (loyiha), 1.1-vazifaning 2-natija ko‘rsatkichi.

qilib qo'yilgan.¹⁴ Bizning baholashimizcha, mazkur yo'nalish individual murojaat mexanizmlarining qamrovini kengaytirishi bilan ijobiy, biroq uning samaradorligi yangi qo'mitalar qarorlarini ijro etishning milliy mexanizmi oldindan shakllantirilgan bo'lishini taqozo etadi. Aks holda murojaat imkoniyatining kengayishi ijro tafovutini yanada kuchaytirishi mumkin.

Strategiyaning mazmunan eng muhim yo'nalishlaridan biri inson huquqlariga oid alohida sohalarni tizimli ravishda kodifikatsiya qilish hisoblanadi. Shu maqsadda Chora-tadbirlar dasturida 2030-yilga qadar Bola huquqlari kodeksi, Ijtimoiy himoya kodeksi, Ta'lim kodeksi, Ekologiya kodeksi hamda Aholi sog'lig'ini saqlash kodeksi loyihalarini ishlab chiqish nazarda tutilgan.¹⁵ Bunday kodifikatsiya tarqoq normativ hujjatlarni yagona tizimga keltirib, huquqni qo'llash amaliyotini soddalashtiradi. Shu bilan birga, fikrimizcha, kodekslar ishlab chiqishda ularning xalqaro standartlarga real muvofiqligini ta'minlash, shunchaki mavjud normalarni birlashtirishdan ko'ra muhimroq vazifa bo'lib, aks holda kodifikatsiya faqat texnik xarakterda qolib ketishi mumkin.

O'tkazilgan tahlil quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini berdi. Birinchidan, Inson huquqlari bo'yicha Milliy strategiya 2020-yildan buyon izchil huquqiy evolyutsiyani bosib o'tdi va 2026-yil fevralidagi o'zgartirishlar xalqaro organlar qarorlarini ijro etish jarayonini ilk bor yagona protsessual tartibga keltirdi. Ushbu mexanizm mohiyatan xalqaro huquqshunoslikda e'tirof etilgan NMIRF konsepsiyasiga mos keladi va Milliy markazni muvofiqlashtiruvchi yadro sifatida belgilaydi.

¹⁴“Inson huquqlari – 2030” strategiyasini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi (loyiha), “ta'sir” ko'rsatkichi: inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilish (5 ta).

¹⁵“Inson huquqlari – 2030” strategiyasini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi (loyiha), 1.1-vazifa bo'yicha bevosita faoliyat natijasi ko'rsatkichlari.

Ikkinchidan, mexanizmni NMIRF mezonlari asosida baholash uning ikki jihatdan, yuqori siyosiy qo'llab-quvvatlov va keng qamrov bo'yicha kuchli ekanligini, biroq doimiylik hamda konkret qarorlar bo'yicha hisobot tizimi bo'yicha jiddiy huquqiy bo'shliqlar mavjudligini ko'rsatdi. Mazkur bo'shliqlar mexanizmning amaliy samaradorligini cheklashi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari suramiz. Avvalo, ishchi guruhning vaqtinchalik maqomini qayta ko'rib chiqib, Milliy markaz huzurida xalqaro qarorlar ijrosi masalalarini muntazam ko'rib chiquvchi doimiy idoralararo ishchi guruh tashkil etish lozim. So'ngra, BMTning ustav organlari va shartnomaviy qo'mitalari tomonidan qabul qilingan har bir konkret qaror bo'yicha alohida ochiq hisobot tartibini joriy etish hamda uni Oliy Majlisda yillik tartibda muhokama qilish amaliyotini o'rnatish maqsadga muvofiq. Nihoyat, individual murojaat doirasini kengaytirish (yangi to'rtta qo'mita hujjatlariga qo'shilish) bilan parallel ravishda mazkur qo'mitalar qarorlarini ijro etishning milliy mexanizmini oldindan shakllantirish zarur. Ushbu choralarning amalga oshirilishi, fikrimizcha, O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish tizimining xalqaro standartlarga muvofiqligini va amaliy samaradorligini sezilarli oshirishga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda inson huquqlari sohasidagi strategik hujjatlar va institutsional mexanizmlar xalqaro standartlar bilan izchil uyg'unlashtirilib borilmoqda. 2026-yilda joriy etilgan ijro mexanizmi va ishlab chiqilayotgan yangi strategiya mamlakatning xalqaro majburiyatlarni vijdonan bajarishga qaratilgan siyosiy irodasini ko'rsatadi. Shu bilan birga, mazkur mexanizmlarning haqiqiy samaradorligi ularning kundalik amaliyotda izchil qo'llanilishiga, doimiy institutsional asosga ega bo'lishiga hamda jamoatchilik nazoratining

ta'minlanishiga bog'liq bo'lib qoladi. Mazkur masalalar kelgusi ilmiy tadqiqotlar uchun istiqbolli yo'nalish hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (2023-yil 30-aprel umumxalq referendumida qabul qilingan tahrir) // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 22-iyundagi "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6012-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 17-fevraldagi PF-27-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 18.02.2026.
4. "Inson huquqlari – 2030" strategiyasi va uni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi (loyiha). — Toshkent, 2026.
5. Vienna Declaration and Programme of Action, World Conference on Human Rights, 25 June 1993, A/CONF.157/23.
6. Principles relating to the Status of National Institutions (The Paris Principles), UN General Assembly Resolution 48/134, 20 December 1993.
7. UN General Assembly Resolution 68/268 "Strengthening and enhancing the effective functioning of the human rights treaty body system", 9 April 2014.

8. National Mechanisms for Reporting and Follow-up: A Practical Guide to Effective State Engagement with International Human Rights Mechanisms. — OHCHR, Geneva, 2016 (HR/PUB/16/1).
9. National Mechanisms for Reporting and Follow-up: A Study of State Engagement with International Human Rights Mechanisms. — OHCHR, Geneva, 2016.
10. National Mechanisms for Implementation, Reporting and Follow-up (NMIRFs). OHCHR. URL: <https://www.ohchr.org/en/treaty-bodies/national-mechanisms-implementation-reporting-and-follow>.
11. Lorion S., Murray R. Interactions between National Human Rights Institutions and National Mechanisms for Implementation, Reporting and Follow-up. — University of Bristol Law School, 2023.
12. Lorion S. A Model for National Human Rights Systems? New Governmental Human Rights Focal Points and Coordination Mechanisms // Nordic Journal of Human Rights, 2020. Vol. 38, Issue 1.
13. The emergence and coming of age of National Mechanisms for Implementation, Reporting and Follow-up. — Universal Rights Group (URG), Geneva.
14. Chalabi A. Developments and Challenges of Designing National Human Rights Action Plans: 1994–2024 // Journal of Human Rights Practice. — Oxford Academic, 2025. Vol. 17, Issue 2.
15. Chalabi A. National Human Rights Action Plans: A Roadmap to Development // Development in Practice. — Taylor & Francis, 2014. Vol. 24, Issue 8.

16. Women, Business and the Law 2026. — World Bank Group, Washington, 2026.

17. Sustainable Development Report 2025. — Sustainable Development Solutions Network (SDSN). Cambridge University Press, 2025.